# TURK ELI

## International Scientific Journal




Volume 1 | Special Issue Part 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

# TURK ELI
# INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
**Sarvar Ispahi**

Editor-in-Chief
**Jenishbek Duysheev**

Deputy Editor in-Chief
**Rahmonali Hasanov**

**Editorial Board:**

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

**About this Special Issue**

*This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference*
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
**Laziz Baxtiyorov**

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

# Contents


| | | |
|---|---|---|
| *A. A. Djumanqulov*<br>*A. A. Beknazarov* | Psychological and Methodological Principles of Effective Lesson Time Management by Teachers | 6 |
| *B. A. Khasanova*<br>*R. Abdullaev* | Digital Transformation in Central Asia: An Assessment Based on the Case of the Kyrgyz Republic | 8 |
| *Yu. Akhmedov* | The Strategic Importance of Crisis Communication in Ensuring National Stability in Polyethnic Societies | 13 |
| *O. F. Egamberdiev* | The Role, Determinants, and Effectiveness of Marketing Strategies in the Sustainable Development of the Transport System: Evidence from the Khorezm Region | 17 |
| *R. Sh. Ibrahimova* | Development History of Parasitology in Azerbaijan | 20 |
| *B. O. Turaev* | Ali Qushchi: The Scholar Who Introduced the Achievements of Ulugh Beg's Academy to the World | 22 |
| *H. Hamidov* | The History of Artists during the Reign of Amir Temur and the Timurid Period | 26 |
| *S. Dj. Saidova* | National Costume as a Historical and Spiritual Phenomenon | 30 |
| *K. M. Yuldoshev* | Innovation in Education | 33 |
| *A. S. Kaliev*<br>*N. B. Bazarbaev* | Political Development and the Transformation of Civil Identity in Uzbekistan: The 690th Anniversary of Amir Temur and the Politics of | 36 |
| *K. M. Yuldoshev*<br>*Z. Murodova* | Rabat-i Malik Caravanserai: A Key Waystation on the Great Silk Road | 39 |
| *D. S. Saparboeva* | Features of the Development of Logical Thinking in Primary School Mathematics Lessons | 42 |
| *Sh. O. Sayfullaeva* | Developing Reading Skills through Authentic Texts in Teaching Russian as a Foreign Language | 44 |
| *N. Kh. Kholyigitova* | The Role of Personal Values–Oriented Career Planning in Higher Education for Societal Development | 46 |
| *M. N. Inatov* | The Application of Sociological and Historical Analysis Methods in Letter Analysis | 48 |
| *M. G. Nazarova* | Socio-Psychological and Educational Strategic Directions for Preparing Future Engineers for Professional Activity in the Context of Societal Development | 51 |
| *I. H. Jabrayilov* | Common Turkish History: Research and Teaching Issues | 54 |
| *O. V. Kon* | Preparing the Next Generation of Social Educators in Higher Education: A Competency Model in the Context of Global Societal Challenges | 56 |
| *D. A. Egamberdieva* | The Semantic Characteristics of Nature Symbols in Uzbek and English Fairy Tales | 60 |
| *Q. H. Inoyatov* | The Scientific Legacy of Our Great Ancestors as a Source of Education and Moral Values | 64 |
| *A. J. Toshboboev* | The Integration of Social Sciences and the Education System for Sustainable Societal Development: An Analysis of Historical and Contemporary Approaches | 66 |
| *G. B. Ernazarov* | The Role of the Service Sector in the National Economy: Significance, Economic Analysis, and Strategies for Improvement | 69 |
| *Ə. M. Zeynalov* | Azerbaijan in French Literature | 72 |
| *K. M. Gulomova* | The Role of Modern Pedagogical Technologies in Enhancing Teachers' Professional Competence | 76 |
| *S. Ibrohimov* | Culture and Historical Heritage as Economic Resources: Innovative Management and Strategies for Sustainable Growth | 79 |
| *J. O. Kucharov* | Enhancing Workforce Potential in Small Business Enterprises in Uzbekistan | 82 |

# Innovation in Education

**K.M.Yuldoshev** (Doctor of Sciences in Pedagogy, Professor)[1]

[1.] Turon Sciences Academy
Tashkent, Uzbekistan

***Abstract.***
This article discusses approaches to ensuring the innovative readiness of future teachers in the educational institutions of the Republic. It examines the implementation of technologies aimed at developing professional competence, creative thinking, and effective use of modern pedagogical and information technologies. The study also highlights methods for assessing students' innovative potential, comprehensively identifying the innovative capacity of the educational process, and creating cyclical mechanisms that integrate practical training with reflective practice. These approaches are intended to enhance the quality of teacher education and promote sustainable innovation in educational practice.
**Keywords:** pre-service teacher, innovation, educational institutions, international experience, innovative activity, globalization, digital transformation, creative thinking, competitiveness, STEM and STEAM approaches.

# Ta'limda innovatsiya

**K.M.Yo'ldoshev** (pedagogika fanlari doktori, professor)[1]

[1.] Turon Fanlar Akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston

***Annotatsiya.***
Maqolada respublika ta'lim tashkilotlarida bo'lajak pedagog kadrlarning innovatsion tayyorgarligini ta'minlash, kasbiy kompetentsiyasi, kreativ fikrlashi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish, talabaning innovatsion salohiyatini baholash, ta'lim jarayonining innovatsion potentsialini kompleks aniqlash, amaliy tayyorgarlik va refleksiyani birlashtiruvchi siklli mexanizmlar yaratish bo'yicha fikr-mulohazalar bayon etilgan.
**Kalit so'zlar:** Bo'lajak o'qituvchi, innovatsiya, ta'lim muassasalari, jahon tajribasi, innovatsion faoliyat, globallashuv, raqamli transformatsiya, kreativ fikrlash, raqobatbardosh, STEM va STEAM yondashuvlar.

**Kirish.** Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida zamonaviy pedagogik tizimni yangilash, raqamli transformatsiyani joriy etish, bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentsiyalarini rivojlantirish, innovatsion pedagog tayyorlashning nazariy asoslari, ta'lim texnologiyalari, o'qitish modellari, kompetentlik mezonlari va baholash indikatorlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Fanlararo bog'lanishlar asosida ta'lim mazmunini qayta yaratish, raqamli texnologik ta'lim muhitida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Bo'lajak pedagog kadrlarni innovatsion tayyorgarligini ta'minlash — ularning kasbiy kompetentsiyasini, kreativ fikrlashini, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omilidir. Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, hamkorlikda ishlash kabi zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini chuqur o'rganish, pedagogik ta'lim mazmunini yangilash, innovatsion metod va texnologiyalarni tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Bu yo'nalish ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, raqobatbardosh, ijodkor pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Respublikamizda so'nggi yillarda inson faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalaridan faol foydalanish, ta'limning sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonida talabalarni ob'ektdan sub'ektga aylantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligi e'tirof etilgan. "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni... aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi."[1] - deb ta'kidlandi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion tayyorlash nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

"Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturida nazarda tutilgan huquqiy zaminni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi Qonunining qabul qilinishi (2020 yil 24 iyul) yangi O'zbekistonni qurishda muhim qadam bo'ldi. Ushbu Qonun taraqqiyotimizni kafolatlovchi, uni yanada jadallashtiruvchi yangi g'oya, yangi kashfiyotlar, ilmiy ishlanmalarni yaratish hamda hayotga joriy etilishining ishochli huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashda benihoya muhim ahamiyat kasb etdi.

Ilmiy – texnikaviy innovatsion salohiyat har qanday rivojlanishda hal qiluvchi ahamiyatga ega omillardan hisoblanadi. Xususan, globallashuv sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni hal etishda ilmiy – texnika va innovatsion siyosatning roli ortib bormoqda.

Jahon tajribasi va mamlakatimizda innovatsion shart – sharoitlarni yaratish davlatning iqtisodiy siyosatida fan va texnologiyalarni rivojlantirishda ko'proq e'tibor qaratishni taqozo etadi. Bunda nafaqat ta'limga, balki fundamental va tarmoq fanlarini rivojlantirishga, fan va sanoat o'rtasidagi

aloqalarni mustahkamlashga urg‘u beriladi.

Yoshlar aql-zakovati va malakasi faqatgina u to‘plagan bilimga emas, balki yuqori mantiqiy tafakkurga ham bog‘liq, shu tufayli bugungi kunda yoshlarda barqaror xotira, mustaqil fikrlash, o‘quv materialini qabul qilishning yuksak darajasi, haqqoniy hayot haqidagi tasavvurlar va albatta, mantiqiy tafakkurni shakllantirish ta’lim oldidagi dolzarb vazifalardan sanaladi. XXI asrda talabalarga nafaqat bilim berish, balki ularda ko‘nikma va malakalarni egallash hamda kelajakda ularni yanada ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish talab qilinmoqda[3].

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

bo‘lajak pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

bo‘lajak pedagog kadrlarning innovatsion tayyorgarligini oshirish modelini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash jarayonini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish;

bo‘lajak pedagog kadolarni innovatsion tayyorlash texnologiyasining samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning usullari.** Mavzuni yoritishda ob’ektivlik, tarixiy, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, tuzilmaviy-funktsional usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya, aniqlikdan mavhumlik tomon o‘tish va nihoyat, milliy tafakkur me’yorlari hisobga olingan.

**Munozara.** Iqtisodiy nuqtai nazardan zamonaviy globallashuv, raqamli iqtisodiyot hamda yangi O‘zbekistonni qurish sharoitida rivojlangan mamlakatlar tajribasida innovatsion faoliyatni tashkil qilish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish masalasi nafaqat korxonalar darajasida balki Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash hamda ularning innovatsion faoliyatini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan esa, zamonaviy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar, avvalo, inson faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalaridan faol foydalanish bilan bog‘liq va birinchi navbatda ta’limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shunga ko‘ra talabalarning kasbiy innovatsion faoliyati tubdan boshqacha ma’no kasb etadi.

Innovatsion faoliyatning mohiyati va mazmuni talabalar uchun ta’lim sohasidagi har qanday yangilik o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilgandagini yuzaga chiqadi. Ya’ni, ta’lim jarayonida talabalarni ob’ektdan sub’ektga aylantirish, birinchi navbatda, o‘qituvchining innovatsion kasbiy kompetentligini oshirishga bog‘liq.

Ilmiy tadqiqot ishining samaradorligi shundan iboratki, unda bo‘lajak pedagog kadrlarni innovatsion tayyorlashning didaktik imkoniyatlari o‘quv materiallarini talabaning raqamli kompitentsiyalariga mos dinamik jihatlar, interaktiv platformalar, adaptiv resurslar va kolloborativ vositalar bilan integratsiyalash hamda o‘zgaruvchan raqamli muhit bilan birgalikda rivojlanuvchi omillar sifatida talqin etish asosida aniqlangan.

Talabalarni innovatsion tayyorlash modeli pedagogik innovatika, psixologik tayyorgarlik, raqamli pedagogik qaror qabul qilish ko‘nikmalari va ijodiy tafakkur komponentalarini o‘z ichiga olgan kross – kompetentilik integratsiyasi nomli yangi blokni kiritish hamda amaliy tayyorgarlik va reflektsiya uyg‘unligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash jarayonlari o‘quv modullarini amaliyotda tekshirish, refleksiv tahlil etish va qayta loyihalash hamda innovatsion o‘qitish algoritmini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Bo‘lajak pedagog kadrlarni innovatsion tayyorlash metodikasining samaradorligi talabaning raqamli pedagogik kompetentligi, muammoga yechim topa olish qobiliyati, pedagogik transformatsiyaga tayyorgarlik darajalari ko‘rsatgichlarini kompleks baholash innovatsion tayyorgarlik indeksi mezonlari asosida aniqlangan.

Bo‘lajak pedagog kadrlarni innovatsion tayyorlash metodikasini takomillashtirish orqali talabalarning innovatsion salohiyati, kognetiv va amaliy ko‘nikmalarini innovatsion pedagogik vaziyatlarni yaratishga yo‘naltirishdagi qobiliyati, simulyatsiya, keyslar, raqamli stsenariylarni interaktiv – innovatsion tashxis qilish asosida takomillashtirilganligi alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar hamda taqdim etilgan xulosalar O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020 yil O‘RQ- 637-son)”da belgilangan g‘oya va vazifalarni amalga oshirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot materialaridan yosh o‘qituvchilar, pedagogika oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari va o‘qituvchilari, ta’lim tashkilotchilari, turli tipdagi ta’lim muassasalari rahbarlari va o‘qituvchilari, fakulьtetlar rahbarlari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini tashkil etish va pedagogik faoliyatga tadbiq etishda foydalanishlari mumkin.

**Xulosa.** 1.Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarini ularning innovatsion yondashuvga ega bo‘lishlari o‘zlashtira olishlarida ko‘rinadi. O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarining o‘zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida namoyon bo‘ladi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi murakkab jarayon bo‘lib, u bir necha bosqichda kechadi.

2.Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko‘ra ta’lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a undovchi, bunyodkorlikka rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lib, ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o‘qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to‘la tushungan holda o‘z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

3. O‘rganib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar, amaliy ishlar tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, Oliy ta’limda qator ijobiy, ilg‘or pedagogik tajriba shakllanganligi bilan bir qatorda, talabalarni innovatsion tayyorlash muammosi talab darajasida yo‘lga qo‘yilmagan. Bunday holatning sababi quyidagi kamchiliklarda o‘z aksini topadi:

1) bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlashning mazmuni va tuzilishi aniqlanmagan;

2) muammo bo‘yicha metodik adabiyotlarning yetarli emasligi;

3) Oliy o‘quv yurti o‘qituvchilarining ko‘p qismini bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlashning didaktik imkoniyatlaridan bexabarligi;

4) pedagogika Oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining innovatsion tayyorgarlik bo‘yicha yetarli didaktik bilim, malaka va ko‘nikmaga ega emasliklari;

5) bo‘lajak o‘qituvchini innovatsion tayyorlash tizimi bosqichlarining o‘zaro bog‘lanmaganligi.

4. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlashda didaktik

imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘quv materiallarini talabaning raqamli kompetentsiyalariga mostligini ta’minlash, interaktiv platformalar, adaptiv resurslar va kolloborativ vositalar bilan integratsiyalash tavsiya etiladi.

5. O‘quv modullarini amaliyotda tekshirish, refleksiv tahlil etish va qayta loyihalash hamda innovatsion o‘qitish algoritmlarini joriy qilish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorgarligini oshirish mumkin.

6.Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash metodikasi talabalarning innovatsion salohiyati, kognetiv va amaliy ko‘nikmalarini innovatsion pedagogik vaziyatlarni yaratishga yo‘naltirishda simulyatsiya, keyslar, raqamli stsenariylarni interaktiv – innovatsion tashxis qilish asosida takomillashtirish asosida ta’limda ijobiy natijaga erishiladi

7.Talabaning raqamli pedagogik kompetentligi, muammoga yechim topish qobiliyati, pedagogik transformatsiyaga tayyorgarlik darajalari ko‘rsatgichlarini kompleks baholash, innovatsion tayyorgarlik indeksi mezonlari asosida aniqlash bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash samaradorligini oshiradi.

8.O‘qituvchilarning innovatsion kompetentsiyasini rivojlantirishga doir ilmiy tushunchalar, tamoyillar va mexanizmlarini tizimlashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion tayyorgarligini rivojlantirishga mo‘ljallangan pedagogik modelь, raqamli pedagogik qarorlar qabul qilish, refleksiv tahlil qilish, qayta loyihalash, innovatsion algoritmlar, metodik tavsiyalar va texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etilishi, pedagogik oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida qo‘llanilsa, ta’lim samaradorligi oshirilishiga erishiladi deb hisoblaymiz.

9.Innovatsion tayyorgarlik jarayonida talabalar pedagogik faoliyat innovatikasining asoslarini egallaydilar. Bu esa o‘qituvchini kasbiy mehnat sub’ekti sifatida faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi. Innovatsion tayyorlashning rivojlantiruvchi vazifasi bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion fikrlashga yo‘naltirishga, ularni pedagogik qobiliyatlari va innovatsion ta’sirchanligiga, pedagogik faoliyatga yondashuvlarini shakllantirishdan iboratdir.

## References


1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y, 56 bet, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20-betlar
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 30 – iyundagi PF-6017 – sonli “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma.– T.:O‘qituvchi, 2004. – 104
5. Innovatsii: teoriya, mexanizm, gosudarstvennoye regulirovaniye: Uchebn. posobiye /Pod red. Yu.V. Yakovtsa. – M.: RAGS, 2000.
6. A.Kulagin Otsenka i samootsenka nauchnoy organizatsii. Innovatsionnaya ekonomika. 2011 g. st. 54-55.
7. UNCTAD Hahdbook of Statistics 2014. New ahd Geneva 2014, P. 155, 171).
8. K.M.Yuldashev “Pedagogika Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash nazariyasi va amaliyoti” monografiya. Navoiy.: Alisher Navoiy nashriyoti, 2015.212 b.
9. K.M.Yo‘ldoshev “Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash nazariyasi va amaliyoti” monografiya Toshkent.: “Bookmany print” 2025. 213 b.
10. “Pedagog kadrlarni innovatsion tayyorlash muammolari” Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti “Global o‘zgarishlar sharoitida raqamli iqtisodiyot, innovatsiya va ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025 yil 19-20 dekabr konferentsiya tezislar to‘plami